



Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning ilmiy-amaliy asoslari

Nosirova To'xtaxon Abdumannopovna

Andijon viloyati Izboskan tumani 45-umumta'im maktabi

texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya fani doirasida kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish, unda o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlari, qiziqishlarini hisobga olish haqidagi turli qarashlar tahlil etildi.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, umummehnat, texnologiya, kasb.

Sharqning buyuk mutafakkirlari va allomalari deyarli barcha davrlarda oz asarlarida, she'r va gazallarida, adabiy meroslarida halol mehnatni, kasb-hunar egallashni muqaddasligini va zarurligini ta'kidlab, ulug'lab o'tganlar.

Xalqimizning millat, elat bo'lib shakllanishini mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bolmaydi. Odamzod paydo bo'lishidan boshlab mehnat bilan shug'ullangan. Turmush buyumlari yasagan, yumushlar bajargan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mehnat keyinchalik, kattaroq maqsadni, moddiy manfaat korish uchun amalga oshirilib, hatto X asrlarda yirik harbiy qoshinlarni, millionlab xalqlarni buyumlar, anjomlar bilan ta'minlay oladigan ishlab chiqarish sohalari darajasigacha taraqqiy etdi.

Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo'lib, o'z o'tmish taraqqiyotiga egadir. Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo'lgan maktabning roli har qachongidan ko'ra o'sdi. Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqni shakllantirish, yosh avlodni



turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta'lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir.

Kasbni to'g'ri tanlash - inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

N.K.Krupskaya fikri bo'yicha kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug'ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari obyektiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalga oshirilmoqda. Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo'yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi, umumiy ta'lim maktabida mehnat politexnika ta'limi sharoitida kasbga yo'naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirildi. Kasbga yo'naltirish o'quvchilarga politexnik ma'lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining asosiy tamoyillari va maqsadli vazifalari sifatida maktab ta'lim tizimini tubdan yangilash; eng yuqori zamonaviy talablarga mos keladigan o'quv-moddiy bazasi va ta'lim standartlarini shakllantirish; Yashash joyidan qat'iy nazar, qishloq va shahar maktablarining moddiy bazasi hamda ta'minlanish darajasidagi tafovutlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish asosida bolalarni ta'lim olishi uchun tinch shart - sharoitlar yaratish; o'qituvchilarning mehnatini har tomonlama rag'batlantirish belgilab berilgan.



Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo‘yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo‘jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi, umumiy ta‘lim maktabida mehnat politexnika ta‘limi sharoitida kasbga yo‘naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirildi. Kasbga yo‘naltirish o‘quvchilarga politexnik ma‘lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ma‘lumki, ta‘lim-tarbiyada boshlang‘ich sinflar ta‘limi alohida bosqich bo‘lib, bu davr bola shaxsini eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 5-6 yoshdagi 10-11 yoshgacha bo‘lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o‘smirlik davriga zamin yaratadi. Ayni shu davr bola shaxsining ko‘rish, kuzatish, idrok etish, tassavur va tafakkur qilishga o‘rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo‘ladi. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika o‘quv yurtlari o‘quv rejalari va dasturlarining bugungi kun talabi darajasida bo‘lishiga e‘tibor qaratish lozim.

O‘qituvchi ilgari tuzgan kasbga yo‘naltirish rejasiga muvofiq tarzda dars reja-konspektini yoza turib, kasbga yo‘naltirish darsi oldiga maqsad qo‘yib, kasbga yo‘naltirishga oid ma‘lumotlarni unga kiritadi. Bu esa biron-bir kasb, asbob, ishlab chiqarish texnologiyasi, muayyan mehnat operatsiyalarini o‘rgatishdan, kasb jihatidan muhim xislatlarini tarbiyalashdan, o‘quvchilarni ilgari belgilangan reja asosida o‘rganishdan yoki ana shu tarkibiy qismlarning hammasini qo‘shib olib borishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Quyi sinflarning o‘quvchilari xilma-xil materiallar (qog‘oz, karton, tabiiy materiallar, tunuka, sim, yog‘och, fanera, plastmassa, tolali materiallar) bilan ish ko‘radilar, ular ishlashga oid o‘zlariga bop, ma‘qul bo‘lgan operatsiyalarni o‘rganadilar. Ular texnik va texnologik tUSDagi masalalarni yechishni o‘rganadilar, turli materiallar hosil qilish va qo‘llanish ishini, bu materiallarning odamlar turmushidagi ahamiyatini bilib oladilar, u yoki bu texnologik operatsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan eng oddiy asboblardan



foydalanish yo'llari bilan tanishadilar va foydalanishni o'rganadilar, tegishli kasblar to'g'risida ma'lumotlar oladilar.

Adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullahmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. – Toshkent. O'zRO'MTV, 2007.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. – Toshkent. 2014.
3. www.pedagog.uz
4. www.ziyonet.uz